



UNITY OF METHODS AND MEANS FOR THE DEVELOPMENT OF THE MORAL FOUNDATIONS OF THE MANAGEMENT OF IDEOLOGICAL RELATIONS

Shaxzoda Negmatova

professor

Uzbekistan-Finland pedagogical institute

Uzbekistan, Samarkand

ABOUT ARTICLE

Key words: idea, ideology, ideological relations, ethics, methods and means, spiritual heritage, management.

Received: 23.12.24

Accepted: 25.12.24

Published: 27.12.24

Abstract: Spiritual and moral maturation of an individual is the basis for rational organization and control of the management of the state and society by ensuring the stable development of socio-political relations of society.

This article analyzes the unity of methods and means of managing ideological and ideological relations and developing its moral foundations.

G'OYAVIY-MAFKURAVIY MUNOSABATLARNI BOSHQARISHNING AXLOQIY ASOSLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI VA VOSITALARI BIRLIGI

Shaxzoda Negmatova

professor

O'zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti

O'zbekiston, Samarqand

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: g'oya, mafkura, g'oyaviy-mafkuraviy munosabatlar, axloq, usul va vositalar, ma'naviy meros, boshqaruv.

Annotatsiya: Shaxsning ma'naviy-axloqiy kamoloti jamiyat ijtimoiy-siyosiy munosabatlari barqaror rivojlanishini ta'minlash orqali davlat va jamiyat boshqaruvini oqilona tashkillashtirish hamda nazorat qilishga asos bo'ladi.

Ushbu maqolada g'oyaviy-mafkuraviy munosabatlarni boshqarish va uning axloqiy asoslarini rivojlantirish usullari hamda vositalari birligi tahlil qilingan.

ЕДИНСТВО МЕТОДОВ И СРЕДСТВ ВЫРАБОТКИ ЭТИЧЕСКИХ ОСНОВ УПРАВЛЕНИЯ ИДЕЙНО-ИДЕОЛОГИЧЕСКИМИ ОТНОШЕНИЯМИ

Шахзода Негматова

профессор

Узбекско – Финский педагогический институт

Узбекистан, Самарканд

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: идея, идеология, идейно-идеологические отношения, мораль, методы и средства, духовное наследие, управление.

Аннотация: Духовно-нравственное совершенствование личности является основой рациональной организации и контроля управления государством и обществом путем обеспечения устойчивого развития общественно-политических отношений общества.

В данной статье анализируется единство методов и средств управления идейно-идеологическими отношениями и выработка их этических основ.

KIRISH

Davlat va jamiyat qurilishi va uni boshqarishning axloqiy normalari hamda tamoyillari, jamiyat taraqqiyotining taqozosi sifatida, dinamik rivojlanishda bo'lib, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning o'zgarishiga olib kelgan. Lekin uning mohiyatidagi, xarakteridagi o'zgarishlarni ayrim ijtimoiy guruhlarining manfaatlariga moslashtirishga urinishlar muqobil yondashuvlarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Shunga ko'ra, jamiyat ijtimoiy-siyosiy manfaatlari bilan axloqiy qadriyatlarini uyg'unlashtirish qanday vosita va usullarni talab qilishini aniqlash muammosi bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotgan emas.

ASOSIY QISM

Axloqiy norma va tamoyillarning ijtimoiylashuvi siyosiy qadriyatlar mohiyatini tashkil etishi bilan, ijtimoiy-siyosiy hayot boshqaruvini muayyan jamiyat fuqarolari va umuminsoniyat manfaatlariga, maqsadlariga moslashtirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan A.Pirinning: «Axloq makon va zamon bilan bog'liq bo'lmagan ma'naviy qadriyatlar majmuidir. Axloq siyosatlashuvi bilan ijtimoiylik xususiyatini namoyon qiladi. Ya'ni, yuqoridan, pastga tushishi bilan majburiyatga, u orqali qonunga aylanadi»[1]– deb yozishi quyidagi sabablarga ko'ra bahs-munozaraga munosib.

Birinchidan, har qanday axloqiy norma muayyan ijtimoiy makon hamda tarixiy zamonning taqozosi bo'lgan ma'naviy qadriyatdir.

Ikkinchidan, axloq siyosatlashuvi bilan emas, balki siyosat axloqlashuvi bilan ijtimoiy mohiyatini, gumanistik xarakterini namoyon qiladi.

Uchinidan, oddiy umuminsoniy axloqiy norma va tamoyillar kundalik hayotdan - «pastdan» siyosat darajasiga - «yuqoriga» ko'tarilsa, ijtimoiy munosabatlarni boshqaruvchi qonun maqomiga ega bo'lishi mumkin.

To'rtinchidan, axloqiy norma va tamoyillar, aksariyat holatlarda, ideallar shaklida namoyon bo'lsa ham, ularga intilish jarayonida takomillashib boradi va ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni boshqarishdagi sub'yektiv omillar tarkibida ustuvorlashib borishini qonuniyat tarzida qarash kerak. Zero, D.Yumning ta'kidlashicha, «axloq tushunchasi insonda umumiy hissiyotni tug'dirib, ob'yektidagi umumiylikni ma'qullaydi va har bir kishini ham, ko'pchilikni ham, muayyan xulosaga olib kelib, bir-biriga itoat ettirishga qodir»[2].

Ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni boshqarishda axloqiy norma va tamoyillardan foydalanishning siyosiy usul va vositalardan farqi, ularning ob'yekti manfaatlaridagi umumiyligi hamda xususiyligi bilan xarakterlanadi. Konkretlashtirib aytganda:

birinchidan, axloqiy norma va tamoyillar: ko'proq insonparvarlashib, aholining barcha ijtimoiy qatlamlariga istisnosiz taalluqli bo'lsa, siyosatda ular muayyan manfaatlar doirasida tabaqalashgan tarzda namoyon bo'ladi;

ikkinchidan, vujudga kelish tarixiy genezisi hamda rivojlanish tendensiyasi bilan bir-biridan farq qiladi, ya'ni siyosiy usullar, vositalar vaqtincha, o'tkinchi bo'lsa, axloqiy norma va tamoyillar nisbatan turg'un hamda rivojlanishi doimiydir;

uchinchidan, axloqiy norma va tamoyillar, asosan (milliyligidan qat'iy nazar) umuminsoniy mazmunga ega bo'lsa, siyosiy sohada ularning muayyan manfaatga mos determinlashib, ijobiy yoki salbiy yo'nalishlari namoyon bo'ladi;

to'rtinchidan, siyosiy norma va tamoyillar davlatning mavjud siyosiy institutlari tizimi tomonidan belgilansa, axloqiy munosabatlarni boshqarishda, ularning ommaviyligi va ko'proq jamoatchilik fikriga tayanishi ko'zga tashlanadi;

beshinchidan, siyosiy axloqning norma va tamoyillari rasmiy reglamentlashtirilgan me'yorlar va qonunlar asosida shakllanib, unifikatsiyalashgan bo'lsa, ular ommaviy axloqda esa, inson irodasi erkinligiga, e'tiqodiga, tarixiy an'alariga tayanib, individual – «personifikatsiyalashgan» xususiyatlarga ega;

oltinchidan, siyosat ijtimoiy borliqning real holatiga, maqsadga erishish vositasi bo'lsa, axloqiy norma va tamoyillar uning universal imkoniyati, sub'yektiv omilidir.

Umumlashtirib aytganda, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni boshqarishda siyosat va axloqning, funksional jihatdan, farqi hamda umumiyligi bo'lsa ham, ularning uyg'unligini ta'minlash jamiyat taraqqiyotining sharti hisoblanadi. Zero, davlat va jamiyat qurilishining demokratik xarakteri siyosiy va axloqiy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlashga asoslanadi. Darhaqiqat, har qanday jamiyatda, tarixiy davrda siyosiy islohotlar axloqiy qadriyatlarga

tayanmog'i kerak. Aks holda, mazkur talablarga amal qilmaslik (hatto, ulardan chekinish) siyosiy mas'uliyatsizlikni, ma'naviy-axloqiy qashshoqlikni namoyon qiladi.

Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni konstruktiv-rasional boshqarishda axloqiy va siyosiy normalar, tamoyillar uyg'unligini ta'minlash, rossiyalik olim K.S.Gadjiyev ta'kidlaganidek: «siyosiy munosabatlarga *bevosita* (kursiv bizniki – N.Sh.) taalluqli bo'lgan ma'naviy qadriyatlar, ular bilan bog'liq institutlar, siyosiy dunyoqarash, jamiyat a'zolarining xulq-atvori majmuasi – siyosiy axloqni tashkil etadi. Siyosiy axloq jamiyatda ijtimoiy adolat o'rnatilishi, fuqaro va rahbarning o'zaro huquqiy munosabati va majburiyati..., tenglik va adolat kabi muhim muammolarni qamrab oladi. U siyosiy hokimiyatni va umuman boshqaruv legitimligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi»[3]. Boshqacha aytganda, jamiyatda ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning axloqiy norma va tamoyillarga ko'ra tashkillashtirilishi, huquqiy me'zonlar asosida boshqarilishi, umuminsoniy qadriyatlarga mosligi, millatning tarixiy shakllangan an'ana va urf-odatlarini ijodiy rivojlantirishi bilan, ularning barqarorligi ta'minlanadi.

O'zbekistonda siyosiy munosabatlarning axloqiy qadriyatlar bilan bog'liqlik masalalarini tadqiq qilgan professor T.Alimardonovning fikricha: «axloq siyosat bilan faqat maqsad doirasida uyg'unlashishi mumkin. Uning vositalari esa turlicha bo'ladi»[4]. Bu fikrga qo'shimcha tarzda shuni aytish kerakki, agar maqsadni amalga oshirishning vositalari, ularni qo'llash usullari axloq normalariga va tamoyillariga asoslanmasa, erishilgan natijaning gumanistik mazmuni shubhali bo'lib qolaveradi. Shuning uchun,

Birinchidan, har qanday ijtimoiy hodisaning, jumladan siyosatning rivojlanish darajasini, demokratik mazmunini belgilaydigan shartlar tizimida, uning vositalari va usullaridagi axloqiylik mezoni muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, umuman jamiyat siyosiy institutlari, xususan davlatning ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni boshqarishdagi demokratik xarakteri, faoliyat usullari va vositalarining axloqiy norma va tamoyillariga asoslanishi, ularning gumanistik mazmunini, sivilizatsiyalashish darajasini namoyon qiladi.

Uchinchidan, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni boshqarish madaniyati (to'g'rirog'i, san'ati)ning axloqiy normalar va tamoyillarga asoslangan usullari, vositalari, omillari, ularning mohiyatini, rivojlanish tendensiyasini, istiqbollarini belgilab beradi.

To'rtinchidan, siyosiy madaniyatning rivojlanish darajasi o'zida axloqiy norma va tamoyillarni sintezlashtirish, uning usullari va vositalaridan foydalanish imkoniyatiga bog'liq bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni boshqarishda siyosiy mexanizmlarining axloqiy norma va tamoyillarga asoslanishi, ularning ob'yektiga ham, sub'yektiga ham nisbatan olinsa, umumiy xususiyatga ega bo'ladi. Ya'ni, rasmiy davlat siyosatiga

mamlakat fuqarolari (shu jumladan turli ijtimoiy-siyosiy institutlar va sosial qatlamlar)ning axloqiy normalar va demokratik tamoyillarga ko'ra munosabatda bo'lishi barqaror taraqqiyotning sharti sifatida qaralishi kerak. Bu esa, o'z navbatida, jamiyat siyosiy ongi va madaniyati rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Har qanday davlatda ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni boshqarishga doir qabul qilingan qaror va qonunlarning, bir tomondan, axloqiy norma hamda tamoyillarga mos kelishi, ikkinchi tomondan, hayotga joriy etilishini nazorat qilishi imkoniyatlari, uning demokratik xarakterini ko'rsatadi. Zero, inson bir vaqtning o'zida jamiyat ijtimoiy-siyosiy munosabatlarining ob'yekti hamda sub'yektidir. Boshqacha aytganda, sub'yektning ma'naviy-axloqiy faolligi, eng avvalo, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilishida namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy munosabatlari, (ya'ni, faoliyatlari) axloqiy norma va tamoyillar ob'yekti hisoblanadi.

Umuman jamiyatni boshqarish ko'proq siyosiy jarayon bo'lgani uchun, davlatning rasmiy huquqiy normativ aktlariga asoslanishi, uning qonuniy legitimligini ifodalaydi. Lekin, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning globallashuvi konkret davlat qonunlari va huquqiy normalari xalqaro miqyosda legitimligini shartli va nisbiy qilib qo'yimoqda. Bunday vaziyatda umuminsoniy axloqiy norma va tamoyillarning ustuvorlashuvi alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, davlat bilan jamiyat, shaxs va jamiyat munosabatlarining uyg'unlashuvida axloqiy qadriyatlar asosiy omil hisoblansa ham, ularning huquqiy jihatdan ta'minlanishi boshqaruv institutlarining (xususan, davlatning) legitimligini mustahkamlaydi.

Har qanday jamiyatda va tarixiy davrda axloqiy norma hamda tamoyillar, bir tomondan, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni boshqaruvchi huquqiy qonunlarni, normativ aktlarni insonparvarlashtiruvchi sub'yektiv omil sifatida namoyon bo'ladi. Ikkinchi tomondan esa, jamiyat boshqaruviga mutasaddi ijtimoiy-siyosiy institutlar faoliyatini, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarga ko'ra reglamentlashtiruvchi mexanizmga aylanadi. Har ikki yo'nalishda ham siyosatning axloqqa «bosimi», uning demokratik xarakteriga mos bo'ladi.

Umuman jamiyat siyosiy tizimining, xususan davlat tuzilishining gumanistik mohiyati, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni konstitusion huquq va umuminsoniy axloq tamoyillari asosida kafolatlashi bilan xarakterlanadi. Bunda jamiyat siyosiy tizimining, muayyan manfaatlar asosida, «klassik» axloq normalari va tamoyillarini zo'rlik bilan o'zgartirishga urinishi totalitarizm, volyuntarizm va sub'yektivizm hodisalarini namoyon qiladi hamda, muqarrar ravishda, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham davlatning bosh islohotchilik rolini etikologik inqirozlarning oldini olishi, gumanistik axloqiy norma va tamoyillarni rag'batlantirishidan ajratib bo'lmaydi. Ya'ni, davlat har qanday sohadagi

islohotlarini tashkillashtirishni qonuniy-huquqiy, ma'naviy-axloqiy jihatdan ta'minlay olmasa, ularning maqsadga muvofiqligi, samarasi kutilgandek bo'lmaydi.

Umumlashtirib xulosa qilsak, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni boshqarish institusional tizimi: axloq, huquq va siyosatning funksional integratsiyasini ham, «subordinatsiyasini» ham rasional tashkil qilishi, ularning rivojlanish darajasini ko'rsatadigan muhim mezondir. Bunda, ijtimoiy ongning: axloq, huquq va siyosat kategoriyalari mazmuni o'zaro integratsiyalashuvi jarayonida konkretlashadi hamda funksional samaradorligini oshiradi. Bu esa, o'z navbatida, shu kategoriyalarning ob'yekti bo'lgan ijtimoiy munosabatlarning xarakteri, ularning har biriga xos nisbatan mustaqil axloqiy norma va tamoyillarni taqozo qiladi. Biroq, axloqiy norma va tamoyillarning muayyan ijtimoiy-siyosiy munosabat yo'nalishlariga mos individuallashuv va «personifikatsiyalashuvi»ni, uning umuminsoniy mohiyatidan ajratib bo'lmaydi.

Ammo, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni: siyosatning (institusional tizimi orqali) – «majburlash», huquqning (qonunlar, normativ aktlar orqali) – «reglamentlashtirish», axloqning (gumanistik norma va tamoyillar orqali) – ishontirish, didaktik funksiyalari, muqarrar ravishda, bir-birini taqozo qilishini nazarda tutadigan bo'lsak, ularning individualligi, mustaqilligi shartli va nisbiy ekanligi ma'lum bo'ladi. Aynan shu holat «shaxs-jamiyat-davlat» munosabatlarini uyg'unlashtirish sharti hisoblanadi va ularning faoliyatini baholash mezonini bo'lishi mumkin. Shu bilan bir qatorda, davlat rasmiy siyosatida ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda demokratiya, adolat, ozodlik, erkinlik, tenglik va boshqa progressiv g'oyalarni ilgari surishi mumkin lekin, ularni hayotga joriy etishdagi no'noqligi, eng avvalo, jamiyatning ma'naviy-axloqiy asoslari nochorligiga borib taqaladi. Natijada, ma'naviyatga, axloqqa asoslanmagan jamiyatda davlat siyosatning konsentrlashgan shakli sifatida korrupsiya, inson erki va huquqiga tahdid, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda adolatsizlik kabi illatlarning oldini olishi yoki ularni bartaraf qilishi qiyin kechadi. Bunda, hatto eng mukammal yaratilgan qonunlar tizimi ham ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni boshqarishda ojiz bo'lib qolaveradi.

Ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning oqilona, konstruktiv tashkillashtirilishi, boshqarilishi va nazorat qilinishi jamiyatdagi turli sosial qatlamlar, toifalarning individual manfaatlari mavjudligi sababli, ularning umumiy murosaga kelishini murakkablashtiradi. Shuning uchun ham ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, mafkuraviy va boshqa munosabat yo'nalishlari umuminsoniy axloqiy qadriyatlarga tayangan holda, o'zlarining funksional samaradorligini ta'minlashi mumkin. Lekin bu jarayon mexanistik, stixiyali bo'lmasdan, balki jamiyat a'zolarining siyosiy onglilik, huquqiy madaniyati, axloqiy salohiyati darajasiga bog'liqdir. Bunda bir-biri bilan bog'liq bo'lgan quyidagi umumiy qonuniyatlar namoyon bo'ladi, ya'ni:

Birinchisi – jamiyatning huquqiy tizimi siyosatning ijtimoiy-siyosiy munosabatlarini boshqarishda axloqiy qadriyatlarga asoslanishini mavjud qonunlar doirasida reglamentlashtiradi. Ya'ni, siyosiy sub'yektlar (ayniqsa, siyosiy institutlar)ning ob'yektga (xususan shaxs) faoliyatini axloqlashtirishga huquqiy maydon yaratadi.

Ikkinchisi – jamiyatning mavjud siyosiy tizimi va uning demokratik xarakteri huquqiy munosabatlarni boshqarishda axloqiy norma va tamoyillarning ustuvorligini ta'minlashi bilan xalqchilligini ifodalaydi.

Uchinchisi – ijtimoiy munosabatlarni boshqarishda siyosiy usullar va vositalarning axloqiy norma va tamoyillar bilan uyg'unlashuvi jamiyat siyosiy tizimining rivojlanish darajasini belgilaydi.

Axloqiy norma va tamoyillarning ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni siyosiy usul va vositalarsiz rasional boshqarishi, amaliy jihatdan, juda qiyin vazifa. Ya'ni, jamiyat ijtimoiy munosabatlarini axloqning rasmiy kodeks va normalari orqali nazorat qilishda siyosatning roli katta. Bu haqda rossiyalik olimlar V.Pugachev, A.Solovyevlar «Politologiyaga kirish» degan asarida jamiyatning siyosat va axloq munosabatlariga muqobil qarashlarni muayyan deterministik yondoshuvlar asosida: «axloqlashgan siyosat», «avtonom axloq», «axloq va siyosat ziddiyati», «siyosat va axloq murosasi», «axloq va siyosat uyg'unligi» kabi qarashlarni qiyosiy tahlil qilishib, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni boshqarish va nazorat qilishda ularning o'zaro **funksional muvozanati** bo'lishi lozim deb hisoblaydilar[5].

Vaholanki, umuman ijtimoiy-siyosiy, xususan alohida olingan axloqiy yoki siyosiy munosabatlarni boshqarishga kompleks-sistemali yondoshishning zaruriyatini e'tirof etadigan bo'lsak, ularning o'rtasidagi funksional muvozanat nisbiy va shartli ekanligi ko'zga tashlanadi. Chunki jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichlarida ayrim ijtimoiy munosabat yo'nalishlari ustuvor ahamiyat kasb etgan. Masalan, antik davrda jamiyat hayotida san'at (xususan, notiqlik san'ati), o'rta asrlarda esa arxitektura va adabiyot, yangi davrda fan, texnika-texnologiya alohida ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa, hozirgi davrda axborotlashish asrning umumiy xususiyatini ifodalaydi. Lekin, har qanday jamiyatning yemirilishi, muqarrar ravishda, ma'naviy-axloqiy inqirozlari yoki aksincha taraqqiyoti ularning rivojlanishi bilan bog'liqligini tarixiy tajribalar isbotlab bermoqda.

Jamiyatning barcha sohalaridagi islohotlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan ta'minlash zaruriyatini har bir fuqaro anglab yetmas ekan, uning samarasi haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Biron bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi»[6].

Darhaqiqat, jamiyat ijtimoiy-siyosiy munosabatlarini boshqarishda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning imkoniyatlarini aniqlash va rivojlantirish milliy taraqqiyotning istiqbollarini belgilaydigan omillar tizimida muhim ahamiyatga molikdir. Ayniqsa, milliy mustaqillikdan keyin ma'naviy rivojlanishni davlat ustuvor siyosati darajasiga ko'tarish demokratik islohotlarning natijalarini belgilab bermoqda. Zero, har qanday sohani demokratik tamoyillar asosida boshqarish millatlarning tarixiy shakllangan ma'naviy madaniyati xususiyatlarini umuminsoniy axloqiy qadriyatlarga uyg'unlashtira olgandagina samarador bo'lishi mumkin. Bugungi kunda jamiyatni demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish jarayonlarini axloqiy qadriyatlar asosida tashkillashtirish har qanday davlatning mustahkam huquqiy negizlarini axlokiy asoslarga bog'liq bo'lishini tarixiy tajribalar isbotlab berdi. Bu o'z navbatida, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy negizlarini istisno qilmaydi. Bu jarayonlar samaradorligi, ya'ni davlat boshqaruv funksiyasining mukammalligi: huquqiy qonunlarning amalda ustuvorligi; siyosiy vaziyat mo'tadilligi; ijtimoiy munosabatlar barqarorligi va sog'lomligi; demokratik islohotlar sobitqadamligi; ijtimoiy adolatning ta'minlanganligi; milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlar uyg'unligida namoyon bo'ladi.

Yangi O'zbekiston bosib o'tgan qisqa tarixiy davr tajribalari ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni boshqarishda mustabid tuzum davrida tanazzulga yuz tutgan milliy qadriyatlarni tiklash, ularni rivojlantirish imkoniyatlari yaratilganligini ko'rsatdi. Mustaqillikning ilk yillaridanoq mamlakat taraqqiyotining ma'naviy-axloqiy asoslarini tiklashga alohida e'tibor berildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan:

- 1) umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- 2) xalqimizning ma'naviy merosini qayta tiklash va rivojlantirish;
- 3) insonning o'z erkinligini amalda namoyon qilish;
- 4) vatanparvarlik kabi tamoyillari hamda ularni hayotga joriy etishdagi izchil siyosati yurt tinchligini, Vatan ravnaqini, xalq farovonligini ta'minlashning asoslarini yaratib berdi.

Zero, barcha sohalaridagi islohotlarning milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosiga qurilishi, uning samaradorligini ta'minlovchi ustuvor omili bo'lib qolmoqda. Bundan keyin ham erishilgan yutuqlarni yanada mustahkamlash uchun milliy mentalitetimizga mutloqo yot, axloqiy qadriyatlarimizga zid va ma'lum ma'noda globallashtirib ketayotgan ijtimoiy illatlarning sabablarini ilmiy jihatdan o'rganish barqaror taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladi. Chunki jamiyat barqarorligini, iqtisodiy, ijtimoiy taraqqiyotni izdan chiqarishga qaratilgan har qanday xavf, eng avvalo g'ayriaxloqiy g'oyalarda, ularni amalga oshirishning mafkuraviy usullarida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, bu g'oyalarning «ezgu maqsadlar» niqobi ostida hayotga joriy etish jiddiy xavf tug'dirmoqda. Masalan, rivojlanayotgan mamlakatlarga demokratiya g'oyalarini eksport qilish,

umuminsoniy sivilizatsiya andozalarini barchaga total qo'llashdan iborat mafkuraviy hatti-harakatlar ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni tarixiy meroslarga vorislik tamoyili asosida rivojlantirish g'oyasiga putur yetkazmoqda. Vaholanki, dunyoda demokratik jamiyat qurishning universal, yagona andozasi bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun ham O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni boshqarish siyosatida axloqiy norma va tamoyil maqomiga ega bo'lgan tarixiy an'analarga, ma'naviy madaniyatining o'ziga xos xususiyatlariga tayanmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ***birinchidan***, har qanday jamiyatning axloqiy norma va tamoyillari vujudga kelish genezisiga ko'ra ob'yektiv jarayon bo'lib, uning funksional mazmuni va mohiyati ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni oqilona tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilishga yo'naltirilgan.

Ikkinchidan, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni boshqarishga doir muqobil axloqiy ta'limotlarning vujudga kelishi va maqomi jamiyat rivojlanish darajasiga mos keladi hamda muayyan ijtimoiy qatlamlarning manfaatlarini ifodalaydi.

Uchinchidan, jamiyat taraqqiyotining har qanday bosqichida insonning ma'naviy-axloqiy qadriyat normalariga, tamoyillariga mos amaliy faoliyati ob'yektiv shart-sharoitlarni va sub'yektiv omillar tizimini taqozo qiladi.

To'rtinchidan, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni axloqiy norma va tamoyillar asosida boshqarish samaradorligi, ularni amalga oshirishning huquqiy qonunlar, siyosiy usul-vositalar bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liqdir.

Beshinchidan, jamiyat boshqaruvida axloq, siyosat va huquqni integratsiyalashtirish, ularni hayotga transformatsiya qilish davlat qurilishining demokratik xarakterini belgilovchi mezon hisoblanadi.

Oltinchidan, hozirgi davrda milliy va umuminsoniy axloqiy normalar hamda tamoyillarni uyg'unlashtirish mexanizmlari funksiyalarini oqilona tashkil etish, uning nazariy-metodologik asoslariga ehtiyojni kuchaytirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Пирин А. О смешении морали с политикой. // Независимая газета. 2003, июнь. - №122.
2. Yangi va eng yangi davr G'arbiy Yevropa falsafasi. –Toshkent: Sharq, 2002. –B.74.
3. Гаджиев К.С. Политическая философия. - М.: Экономика, 1999, - С.372.
4. Alimardonov T.T. Siyosat va axloq muvozanati muammolari. Siyosiy fanlar doktori ilmiy darajasi dissertatsiyasi aftoreferati. – Toshkent, 2006. – B.25.
5. Пугачев В.П., Соловьев А.И. Введение в политологию. - Москва: Наука, 2002. - С. 57.
6. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -Toshkent: O'zbekiston. 1997. –B.137.